

**MA’MURIY HUQUQ SOHASIDA MA’MURIY
IXTIYORIYLIKNING (DISKRETSION VAKOLATNING)
QONUNIYLIGI PRINSIPINING AHAMIYATI**

Umarova Xolisxon Nomoz qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi

xolisxonumarova3@gmail.com

Annotatsiya: Ma’muriy huquq ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan munosabatlar huquqi sohasi bo‘lib, bunda bir tarafda ma’muriy organ ikkinchi tarafda esa fuqarolar va yuridik shaxslar ishtirok etadi. Bu sohani tartibga solishga qaratilgan eng muhim normativ-huquqiy hujjat 2018-yil 8-yanvarda qabul qilingan “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanib, ushbu qonunning maqsadi ma’muriy tartib-taomillarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Ma’muriy tartib-taomillar bir qancha asosiy prinsiplarni o‘zida jamlagan bo‘lib, ulardan biri bu – ma’muriy ixtiyoriylikning (diskretsiyon vakolatning) qonuniyligi prinsipi hisoblanadi. Ushbu maqolada ma’muriy ixtiyoriylik (diskretsiyon vakolat) ning ahamiyati jahon tajribasi bilan birgalikda o‘rganildi va tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: ma’muriy huquq; prinsiplar, diskretsiyon vakolat; korrupsiyon omili.

THE IMPORTANCE OF THE PRINCIPLE OF LEGALITY OF ADMINISTRATIVE DISCRETION (DISCRETIONARY AUTHORITY) IN THE FIELD OF ADMINISTRATIVE LAW

Umarova Kholiskhon Nomoz kizi

Student of Tashkent State University of Law

xolisxonumarova3@gmail.com

Abstract. Administrative law is an area of public law that arises from public legal relations in which an administrative body participates on the one hand, and citizens and legal entities on the other. The most important legal document aimed at regulating this area is the Law of the Republic of Uzbekistan “On Administrative Procedures”, adopted on January 8, 2018. The purpose of this law is the implementation of administrative procedures and to regulate relations in the field of its development. Administrative procedures include several basic principles and one of them is the principle of legality of administrative discretion (discretionary power). In this article, the value of administrative discretion (discretionary power) was analyzed along with foreign experience.

Keywords: administrative law, principles, discretionary power, corruption factor

“Diskretsiyon vakolat” tushunchasi fransuz tilidagi “discrétionnaire” soʻzidan olingan boʻlib, “shaxsiy ixtiyoriga qarab” degan maʼnoni anglatadi. Mazkur tushuncha orqali davlat organlari va mansabdor shaxslarga qonun doirasida berilgan huquq va vakolatlaridan oʻz ixtiyoriga koʻra oʻz vakolatlari doirasida yechim tanlashlari tushuniladi. Jumladan, “Maʼmuriy tartib-taomillar toʻgʻrisida”gi Qonunning 4-moddasida maʼmuriy ixtiyoriylik (diskretsiyon vakolat) tushunchasiga “maʼmuriy organning qonunchilik doirasida yoʻl qoʻyilgan choralardan birini qonuniylikka va maqsadga muvofiqlikka oʻzi baho berishi asosida oʻz ixtiyoriga koʻra qoʻllash yoki tegishli chorani qoʻllashdan voz kechish huquqi” deya taʼrif keltirilgan. Yaʼni, maʼmuriy-huquqiy faoliyat sohasida maʼmuriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, shu jumladan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, shuningdek ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli boʻlgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi ishlar boʻyicha oʻz vakolatlari doirasida belgilangan choralardan oʻz ixtiyoriga koʻra foydalanadi. Masalan, 2021-yil 14-iyulda qabul qilingan “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari toʻgʻrisida”gi Qonuning 42-moddasining 1-bandini tahlil qilib chiqaylik.

Mazkur normada belgilanishicha, “Vakolatli organ xabardor qilish tartibi toʻgʻrisidagi yagona nizomga ilovalar hisoblanuvchi pasportlarda nazarda tutilgan talablar va shartlar buzilganligi aniqlangan taqdirda, xabardor qiluvchining xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatini (harakatlarini) oʻn ish kunidan ortiq boʻlmagan muddatga toʻxtatib turishi mumkin”. Demak, vakolatli organ xabardor qiluvchining xabardor qilish tartib-taomillariga amal qilmaganligini aniqlasa, uning faoliyatini oʻn ish kuniga qadar toʻxtatib turishga haqli. Bunda qonun chiqaruvchi vakolatli organga

majburiyat yuklamayapti, qanday harakat qilish lozimligini uning ixtiyoriga qoldirmoqda. Aytaylik, investitsiya vositachi o‘z faoliyatini xabardor qilish taomili asosida amalga oshiradi, bu faoliyat turi litsenziya olishni talab etmaydi. Xabardor qilinishi lozim bo‘lgan organ esa Moliya Vazirligi. Agar investitsiya vositachining 42-modda 1-qismida belgilangani kabi xabardor qilish talab va shartlarini buzganligi aniqlansa, Moliya Vazirligi uning faoliyatini ma’lum bir muddatga (10 ish kunidan ortiq bo‘lmagan) to‘xtatib qo‘ya oladi, ammo bu Moliya Vazirligining o‘z ixtiyoriga bog‘liq.

Garchi diskretsion vakolat ma’muriy organning mustaqil qaror qabul qilish yoki erkin harakat qilishi uchun eng asosiy imkoniyatlaridan biri bo‘lsada, olimlar va tadqiqotchilar diskretsion vakolatning salbiy jihatlarini ham nazarda tutishadi.

G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, yuridik fanlar doktori S.N.Bratonovskiy va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi Rossiya xalq xo‘jaligi va davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi M.F.Zelenovning “Ijro hokimiyati tizimida korrupsiya omili sifatida diskretsion vakolat” to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqot ishida ma’muriy sohadagi korrupsion holatlarning ko‘payishini diskretsion vakolatning kengligi bilan bog‘lagan holda tushuntiriladi^[1]. Ularning fikriga ko‘ra, ixtiyoriy vakolatlarining kengligi, huquqlar doirasini tanlab o‘zgartirish va huquqni muhofaza qiluvchi organ mansabdor shaxslari uchun asossiz ravishda keng ixtiyoriy chegaralarni belgilovchi boshqa omillar korrupsiogen omillar hisoblanadi. A.F.Nozdachevning qayd etishicha, bunday korrupsion “nuqsonlar”ni o‘z ichiga olgan huquqiy normalar “potensial xavflidir, chunki ular davlat xizmatchilarining korrupsion harakatlari uchun “huquqiy” shart-sharoitlar va old shartlarni yaratadi”^[2]. A.A.Chistovning ta’kidlashicha

esa ijroiya organlarida korrupsiyaning namoyon bo'lishining asosiy shartlariga mansabdor shaxslarning harakatlarida ma'muriy to'siqlarni yaratishga imkon beradigan ma'muriy ixtiyoriylikning kengligi kiradi^[3].

Umuman olganda, L.N.Berg huquqni qo'llash jarayonida ixtiyoriylikni tushunishning turli yondashuvlarini tahlil qilib, uchta asosiy yondashuvni aniqlaydi^[4].

Birinchi yondashuvga ko'ra (D.B.Abushenko, K.I.Komissarov, A.P.Korneev, O.A.Papkova), ixtiyoriylik bu mavjud bo'lgan bir nechta qonuniy muqobil variantlardan subyektiv tanlov qilishda namoyon bo'ladi;

Ikkinchi yondashuvga ko'ra (Ya.Zeykan, V.P.Kazimirchuk, V.N.Kudryavtsev), ixtiyoriylik ishning holatlarini subyektiv idrok etish va huquqiy normalarni subyektiv talqin qilish asosida qaror qabul qilish deb tushunishga asoslanadi;

Uchinchi yondashuvga ko'ra (V.G. Antropov, A.T. Bonner, Yu.P. Solovey), ba'zi tadqiqotchilar diskretsiyani huquqni qo'llash faoliyatining o'ziga xos turi sifatida tushunishdan kelib chiqadilar, bu muayyan huquqiy ishning maqbul yechimini topishga intellektual-irodaviy yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi, deb hisoblaydilar.

2010-yil 26-yanvarda Rossiya Federatsiyasida qabul qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan Nizomda diskretsiyon vakolatning korrupsion omil sifatida quyidagi xususiyatlari sanab o'tiladi:

· ixtiyoriy vakolatlarning kengligi: qaror qabul qilish shartlari yoki asoslarining yo'qligi va noaniqligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi

organlarining yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarida (ularning mansabdor shaxslarining) takroriy vakolatlarining mavjudligi;

- vakolatni belgilash - davlat hokimiyati organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari (ularning mansabdor shaxslari) tomonidan fuqarolar va tashkilotlarga nisbatan xatti-harakatlar qilish imkoniyatini aniq belgilamaslik;

- huquqlar doirasini tanlab o'zgartirish - davlat hokimiyati organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari (ularning mansabdor shaxslari) ixtiyoriga ko'ra fuqarolar va tashkilotlar uchun umumiy tartibdan asossiz ravishda istisnolarni belgilash imkoniyati;

- bo'ysunuvchi norma ijodkorligining haddan tashqari erkinligi - dastlabki normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan davlat hokimiyati yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatiga kiruvchi qonunosti hujjatlarini qabul qilishga olib keladigan umumiy va havola normalarining mavjudligi;

- vakolat doirasidan tashqarida normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish - normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining (ularning mansabdor shaxslarining) vakolatlarini buzish;

- tegishli vakolatlarni qonun chiqaruvchi organ bo'lmagan taqdirda qonun hujjatlaridagi bo'shliqlarni qonun osti hujjatlari yordamida to'ldirish - qonun mavjud bo'lmaganda qonunosti hujjatlarida umumijburiy bo'lgan xulq-atvor qoidalarini belgilash;

- ma'muriy tartib-taomillarning yo'qligi yoki to'liq emasligi - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari (ularning mansabdor shaxslari) tomonidan muayyan harakatlar yoki bunday tartibning elementlaridan birini amalga oshirish tartibining yo'qligi;

· tanlov (auksion) tartib-qoidalaridan voz kechish - huquq (imtiyozlar) berishning ma'muriy tartibini belgilash^[5].

Xuddi shuningdek, nafaqat xorijda, balki, Ozbekiston Respublikasi Adliya vazirining "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom va unga ilova qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyaviy omillarni aniqlash Uslubiyoti"da ham diskretsiyon vakolat haqida nazarda tutib o'tilgan. Unga ko'ra, diskretsiyon vakolatning kengligi normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog'liq korrupsiyaviy omil bo'lib, davlat organlari va boshqa tashkilotlarga yoki ularning mansabdor shaxslariga (o'z ixtiyoriga ko'ra qarorlar qabul qilish, bir nechta turdagi qarorlarni qabul qilishni tanlash va qarorlarni ijro etishning usullarini belgilash imkoniyatini asossiz ravishda berish oqibatida korrupsiyaviy holatlar vujudga kelishining xavfi yuqori hisoblanadi. Diskretsiyon vakolatlarining kengligi asosan quyidagilarda ko'rinadi:

- qarorlarni qabul qilishning sharoitlari va asoslarining mavjud emasligi;
- davlat organlariga o'z ixtiyoriga ko'ra yuridik faktni baholashga hamda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tegishli harakatlarni amalga oshirishning tartibini mustaqil ravishda belgilashga yo'l qo'yish;
- "qaror qabul qilishi mumkin" shaklidagi qaror qabul qilish vakolatini berish;
- davlat organlariga ularning vakolatiga tegishli bo'lmagan vazifa va vakolatlarining yuklatilishi.

Nemis ta'limotiga ko'ra esa noqonuniy ixtiyoriylik quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- mansabdor shaxsning o‘z vakolati doirasidan chiqib ma‘muriy ixtiyorlikning tanlashi;
- hokimiyat o‘ziga berilgan vakolatlardan o‘z ixtiyorini amalga oshirish uchun foydalanmaganda namoyon bo‘luvchi ixtiyoriy vakolatdan yetarlicha foydalana olmasligi yoki umaman foydalanmasligi;
- qonunda belgilanmagan maqsadlarda yoki hisobga olinishi kerak bo‘lgan tegishli muhim jihatlarga amal qilinmagan holda ixtiyoriylikdan foydalanishda namoyon bo‘ladigan ixtiyoriylikni suiiste‘mol qilinishi^[6].

Vakolatlar har doim hokimiyatga o‘z manfaatlarini yoxud alohida fuqaroning manfaatlarini ko‘zlab emas, balki jamoat manfaatlarini qondirish uchun beriladi. Agar o‘z vakolatini amalga oshiruvchi organ bunday vakolatdan jamoat manfaatlariga erishishdan boshqa maqsadda foydalansa, u qonunga xilof harakat qilgan hisoblanadi va uning noqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin bo‘ladi.

Diskretion vakolatning suiiste‘mol qilinishiga yana bir yorqin misollardan biri bu qonundagi bo‘shliqlar yoki noaniqliklar bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Germaniyaning “Passport masalalari to‘g‘risida”gi Federal Qonuni ma‘muriy organlar tomonidan pasport berishni rad etish shartlarini belgilaydi. Mazkur hujjatning nizoli 7-qismida agar ariza beruvchiga pasport berish Germaniya Federativ Respublikasining ichki yoki tashqi xavfsizligiga yoki “boshqa muhim manfaatlariga” xavf soladigan bo‘lsa, pasport berilmaydi, deb belgilangan. Ammo Germaniya Konstitutsiyaviy sudi tomonidan ham ta‘kidlaganidek^[7], “boshqa muhim manfaatlar” deganda aynan nima nazarda tutilayotganligi aniq

emas va bu o‘z-o‘zidan huquqbuzarliklarga yo‘l ochib berishi mumkin, chunki bunda holatni baholash ma‘muriy organning ixtiyorida qolmoqda.

AQSh Oliy sudi sudyasi Uilam Duglas: “Diskretsion vakolat mutlaq darajaga yetganda inson hamisha aziyat chekadi. Mutlaq diskretsia insonning boshqa kashfiyotlaridan farqli o‘laroq, uning ozodligiga nisbatan kuchli talofat yetkazuvchidir. Mutlaq diskretsia ozodlik yakun topishining boshlanishini ilgari suradi”, degan edi. Yuqoridagi olimlarning fikriga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning barchasi diskretsion vakolatning salbiy oqibatlari haqida fikr yuritadi^[8]. Ammo fikrimizcha, agarda diskretsion vakolatning ishlash mexanizmini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, u o‘zining bir qancha ijobiy jihatlari bilan o‘zini oqlay oladi.

Birinchidan, diskretsion vakolat ma‘muriy organlarning mustaqil faoliyatini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Ikkinchidan, mazkur vakolat orqali turli xil mazmundagi murojaatlarga teng bo‘lmagan bir xil yechimlar berilishi oldi olinadi.

Uchinchidan, diskretsion vakolatning qonuniyligi prinsipi ma‘muriy tartib-taomillarning boshqa bir qator prinsiplari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Masalan, teng huquqlilik prinsipiga ko‘ra, ma‘muriy organlarga bir xildagi haqiqiy holatlarga ega ma‘muriy ishlarni hal etishda teng bo‘lmagan yondashuvni namoyon etish taqiqlanadi. Ammo haqiqiy holatlari bo‘yicha jiddiy farqlanadigan ma‘muriy ishlarni bir xil tarzda hal etishga yo‘l qo‘yilmasligida ham diskretsion vakolatga havola qilinadi.

To‘rtinchidan, mutlaq diskretsion vakolat ma‘muriy organ yoxud ular mansabdor shaxslarining vakolatlarini suiiste‘mol qilishlariga olib kelish ehtimoli mavjud ekan, undan cheklangan tarzda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasida

ham Ma'muriy organ ma'muriy ixtiyoriylikni (diskretsiyon vakolatni) qonunchilikda belgilangan doirada amalga oshirishi shartligi hamda ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyon vakolat) asosida qabul qilingan ma'muriy hujjatlar va amalga oshirilgan ma'muriy harakatlar ushbu vakolatning maqsadiga mos kelishi kerakligi to'g'risida norma o'rnatilganligi buning yaqqol dalilidir.

Beshinchidan, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuning 54-moddasiga ko'ra, agar ma'muriy hujjatni qabul qilishda ma'muriy organga ma'muriy ixtiyoriylik (diskretsiyon vakolat) berilgan bo'lsa, ma'muriy hujjatning asoslantiruvchi qismida u yoki bu ma'muriy ixtiyoriylikka (diskretsiyon vakolatga) yoxud undan voz kechishga sabab bo'lgan barcha baholar, vajlar va mulohazalar bayon etiladi. Bunda ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy hujjatning ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga muvofiqligini asoslab berishi kerak. Bu esa diskretsiyon vakolatni amalga oshiruvchi ma'muriy organ yoxud ular mansabdor shaxslariga majburiyat yuklaydi.

Oltinchidan, agar ma'muriy organ yoxud ular mansabdor shaxslari diskretsiyon vakolatdan noto'g'ri foydalansalar bu ularning qarorlar keyinchalik bekor bo'lishiga yoki harakat (harakatsizligi) qonunga xilof deb topilishiga olib kelishi mumkinligi kafolatlanadi. **Buni quyidagi sud ishi misolida ham ko'rish mumkin:**

Arizachi Termiz tumanlararo sudga ariza bilan murojaat qilib, tuman hokimligi huzuridagi tuman subsidiya to'lanadigan talabgorlarni tanlab olish bo'yicha komissiyaga nisbatan xatti-harakatini qonunga xilof, 2022-yil 14-fevraldagi rad etish to'g'risidagi qarorini haqiqiy emas deb topish va komissiya zimmasiga arizachini subsidiya oluvchilar ro'yxatiga kiritish majburiyatini yuklashni so'ragan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-martdagi 182-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi

uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, ariza beruvchi subsidiya olish uchun tuman (shahar) DXMga o'zi kelib murojaat etadi yoki YIDXP orqali mustaqil ravishda anketa-arizani elektron tarzda to'ldiradi. Subsidiya tayinlash bo'yicha komissiya tuzilgach, Nizomning 4-ilovasiga ko'ra, komissiya ma'lumotlar olingan kundan boshlab 7 ish kuni mobaynida, ariza beruvchi ishtirokida arizalarni ularning qayd etilishi navbatligiga ko'ra ko'rib chiqadi. Komissiya taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar asosida hamda ijtimoiy mezonlar asosida baholash natijalariga ko'ra ariza beruvchiga ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiya berish yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Nizomning 38-bandida ariza beruvchiga subsidiya to'lanishi rad etilishi asoslari keltirib o'tilgan bo'lib, ish holatlariga ko'ra, komissiya tomonidan qabul qilingan nizoli rad etish asosida 38-moddadagi and "j" bandida ko'rsatilgan joriy yil uchun ajratilgan subsidiyalar soni tugaganligi asosi bilan rad etilishi lozim bo'lsa-da, Nizomning 40-bandiga muvofiq sud subsidiya ajratishni rad etish haqida qabul qilgan qarorni Nizom talabiga zid ravishda qabul qilingan deb hisoblaydi. Sababi, Nizomning 40-bandiga ko'ra, ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lmaganda, noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligi aniqlanganda komissiya ariza beruvchiga subsidiya ajratishni rad qilish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bundan tashqari, mazkur Nizomning 44-bandiga ko'ra, ijtimoiy mezonlar bo'yicha baholash natijalariga ko'ra 30 va undan yuqori ball to'plagan, lekin joriy yil uchun belgilangan subsidiyalar soni tugatilganligi sababli subsidiya olish imkoniyatiga ega bo'lmagan talabgorlar keying yil uchun subsidiya oluvchilar ro'yxatiga avtomatik tarzda kiritiladi. Arizachi baholash mezonlariga ko'ra 39 ballni to'plagan bo'lgan. Biroq, komissiya tomonidan ushbu Nizom talablari ham buzilib, arizachi talabgorlar ro'yxatidan butunlay chiqarib yuborilgan.

“Ma’muriy-tartib taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasiga ko‘ra, ma’muriy tartib-taomillar prinsiplariga nomuvofiqlik ma’muriy hujjatlarning va ma’muriy harakatlarning bekor qilinishiga yoki qayta ko‘rib chiqilishiga olib keladi. Yuqoridagi barcha holatlarni inobatga olib, birinchi instansiya sudi arizachining arizasini to‘liq qanoatlantiradi.

Mazkur sud ishida ham diskretion vakolatning ishlash mexanizmini ko‘rish mumkin. Ma’muriy organ sifatida komissiyaga subsidiya berish yoki berishni rad etish bo‘yicha vakolat berilgan. Bu uning vakolati, majburiyati emas. Agar normani “subsidiya berish to‘g‘risida qaror qabul qiladi” yoki “qabul qilishi shart” so‘zlari bilan almashtirsak, unda birinchidan, komissiya har bir arizachiga subsidiya ajratish bo‘yicha qaror qabul qilishga majbur bo‘lar edi, ikkinchidan, agar har bir arizachiga subsidiya olish imkoniyati beriladigan bo‘lsa, aslida, komissiyaning keragi ham bo‘lmas edi. Davlat subsidiya ajratishni ma’lum mezonlar asosida belgilab qo‘ygani bois ham komissiyaga subsidiya berish bo‘yicha yoki berishni rad etish bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatini beradi. Ammo, shu bilan birga, bunday vakolatni amalga oshirish uchun qonun bo‘yicha cheklovlar, masalan, rad etish asoslari belgilangan. “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuning 17-moddasida ham Ma’muriy organ ma’muriy ixtiyoriylikni (diskretion vakolatni) qonunchilikda belgilangan doirada amalga oshirishi shartligi belgilab qo‘yilgan.

Umaman olganda, Yevropa standartlari va tavsiyalari, milliy qonunchilik va sud amaliyotini hisobga olgan holda, sud nazoratini amalga oshirishda quyidagilarga amal qilinishi kerakligi aytiladi:

- Ma’muriy organning o‘z xohishiga ko‘ra ixtiyoriy vakolati bor yoki yo‘qligini, agar mavjud bo‘lsa, uning xususiyati qanday ekanligini aniqlash;

- Vakolatli organ tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan doirada va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z vakolatlarini amalga oshirganligini tekshirish;

- Diskretsiya mutlaqmi yoki yo'qmi, ma'muriy organ qonuniy maqsadda harakat qilganmi, zarur protsessual qoidalarga rioya qilinganmi yoki yo'qmi, aniqlash^[9].

Ma'muriy organning qarori, harakati yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilingan har bir holatda da'voni qanoatlantirish uchun sud nafaqat ma'muriy organning noqonuniy xatti-harakatlarini, balki da'vogarning huquqlari, erkinliklari yoki huquqbuzarliklari buzilganligini ham aniqlashi kerak.

Bunda sudlar javob topishi kerak bo'lgan savollarning izchil ro'yxati bo'lib, ularga javob bergandan so'ng, sud o'z ixtiyor vakolatini qo'llash noqonuniymi yoki yo'qligini bilib oladi. Ushbu algaritm quyidagi savollardan iborat:

- Hokimiyat distrektion vakolatdan foydalanganmi?
- Qo'llanilgan ixtiyoriy vakolat ma'muriy hisoblanadimi?
- Agar shikoyat predmeti ma'muriy organning qarori bo'lsa, u muayyan ma'muriy ish yuritish doirasida yakuniymi?
- Hokimiyat o'z ixtiyori doirasida harakat qildimi?
- Davlat organ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda harakat qilganmi?
- Diskretsiyon vakolat mutlaq hisoblanadimi?
- Hokimiyat qonuniy maqsad bilan harakat qilganmi?

- Davlat organi protsessual qoidalarga aml qilganmi?
- Protsessual qoidalarning buzilishi hokimiyat qaroriga yoki ko‘rib chiqishning boshqa natijalariga ta‘sir qilganmi yoki hech bo‘lmaganda ta‘sir qilgan bo‘lishi mumkinmi?
- Hokimiyat o‘z qarorini to‘g‘ri asoslab berganmi?

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida tahlil qilib o‘tkaznimizdek, diskretsiyon vakolatning o‘ziga xos bir qancha ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Ko‘plab olimlar diskretsiyon vakolatning kengligini korrupsiogen omil sifatida ko‘rishsada, undan qonun doirasida cheklangan tarzda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki vakolat bu aslida huquq deganidir va u qonun va ish holatlariga qarab erkin tanlanishi kerak, yo‘qsa uning majburiyatdan farqi qolmagan bo‘lar edi.

Bizningcha, K.I.Golovshinskiyning fikrlar to‘g‘ri – korrupsiyani ikki asosiy omil qo‘zg‘atadi: qonunning haddan tashqari talablari va ixtiyoriy vakolatlar. Qonun subyektlarga nisbatan ko‘plab majburiyat va talablarni yuklasa, shaxslar qonundan chekinish yo‘llarini izlashadi, xuddi og‘ir soliq-boj siyosati hukm surgan davlatlarda “yashirin iqtisodiyot” keng yoyilgani kabi. Ikkinchi tomondan esa, keng erkin ixtiyoriy vakolatlarining mavjudligi ham cheklanmagan huquqlarni keltirib chiqarishi va bu orqali jamiyatda tartibsizlik va korrupsiya avj olishi mumkin. Shu boisdan, ma‘muriy organ va uning mansabdor shaxslarga diskretsiyon vakolatning berilishi bu ularning ish holatlaridan kelib chiqib, to‘g‘ri va adolatli yechim berishiga ko‘maklashishi mumkinligini, ma‘muriy organ va ular mansabdor shaxslarning faoliyati erkinligi kafolatlari sirasiga kirishini inobatga olib, diskretsiyon vakolat mavjud bo‘lishi kerak, ammo uning ham chegarasi belgilangan bo‘lishi va undan asosli foydalanish kerakligi o‘rnatilgan bo‘lishi lozim, degan fikrdamiz.

Adabiyotlar / References.

- [1] Братановский С.Н., Зеленов М.Ф. Дискреционные полномочия как фактор коррупции в системе исполнительной власти . // Административное и муниципальное право. - 2016. - № 4. - С. 311-315. DOI: 10.7256/1999-2807.2016.4.16725
- [2] Ноздрачев А.Ф. Коррупция как правовая проблема в вопросах и ответах // Адвокат. 2007. № 10
- [3] Чистов А.А. Административно-правовое регулирование противодействия коррупции в федеральных органах исполнительной власти в современных условиях. Автореф. дис. канд. юрид. наук. М., 2010. Российская газета. 2006. 8 дек.
- [4] Братановский С.Н., Зеленов М.Ф. Дискреционные полномочия как фактор коррупции в системе исполнительной власти . // Административное и муниципальное право. - 2016. - № 4. - С. 311-315. DOI: 10.7256/1999-2807.2016.4.16725
- [5] X.D.Mamaziyayev. Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi: Rossiya Federatsiyasi tajribasi//O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali.-20.06.2022. 9-son 55-62-betlar
- [6] O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nizom. 24-fevral,2021-yil ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3287
- [7] Edith Zeller, Roman Kuibida, Roman Melnyk [Report: Discretion of Administrative Bodies and Judicial Control] February 2021, p51-52

[8] Ma'muriy huquq va protsess/S.A.Muratayev, B.T.Musayev, D.R.Artikov/Darslik/Toshkent.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020 yil, 328-bet.

[9] Maurer H. Allgemeines Verwaltungsrecht. Verlag C.H. Beck, München, 2011, S. 149; Braibant G. French Administrative Law: Transl. from French / Edited and preceded with the article by S.V. Bobotov. – M.: Progress, 1988. – C. 193